

SMTida Germaniya harbiy delegatsiyasi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi



SMTiga Germaniyaning Federal Mudofaa Vazirligining xavfsizlik va mudofaa siyosati boshqarmasi boshlig'i brigada generali Wolfgang Ol boshchiligidagi harbiy delegatsiya bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Suhbat chog'ida tomonlar Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikning rivojlanishining ijobiy dinamikasi, Afg'onistonidagi vaziyat, O'zbekiston va Germaniya o'rtaqidagi ikki tomonlama harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari yuzasidan fikr almashdilar.



Mehmonlarga O'zbekistonning qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, mintaqada ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalarni rivojlantirish bo'yicha erishilgan natijalar hamda Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlash bo'yicha keyingi qadamlar haqida ma'lumot berildi.

Bundeserver vakillari O'zbekistonning qo'shni Afg'onistonni ijtimoiy-iqtisodiy tiklash jarayonini qo'llab-quvvatlash borasidagi sa'y-harakatlarini olqishladilar. Tomonlar Afg'oniston xalqini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shma savdo-sotiq, sarmoyaviy va gumanitar loyihalarni amalga oshirishda O'zbekiston-Germaniya hamkorligini rivojlantirilishining salohiyati haqida fikr bildirdilar.

